MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ 9
Мусаев Озоджон Шавкат Огли
MAHALLIY BUDJETNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLARINI BAHOLASH 15
Uktamov Fazliddin Faxriddinovich
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РОЗНИЧНЫХ ОПЕРАЦИЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 19
Султонмуродов Сардорбек Баходирович
OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 24
Egamov Sevinchbek
TIJORAT BANKLARINING TO'LOV XIZMATLARI AMALIYOTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 29
B.B. Xanaliyev
SAMARQAND VILOYATIDA TURISTIK KORXONALAR INNOVASION RIVOJLANISHINI SSENARIYLI PROGNOZLASH 33
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna
MILLIY MODA ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA UNI O'ZLASHTIRISH SHARTLARI 38
Yusupova Moxinur Farxod qizi
HUDUDLAR INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 48
Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich
DAVLAT XARIDLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH 53
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich
«ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В УЗБЕКИСТАНЕ» 62
Хайруллаева Малика Шухратжон кизи
EMPIRICAL EVALUATION OF THE FACTORS ASSOCIATED WITH APPLICANT BEHAVIOUR IN HIGHER EDUCATION CHOICE: INDIVIDUAL CUT-OFFS, THRESHOLD HETEROGENEITY, AND THE LIMITS OF AGGREGATE DETECTION 68
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li
SANOAT KORXONALARIDA DAVLAT XARIDLARI MOLIYAVIY RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH 80
Xamdamov Sardor Farmon o'g'li
OLIY TA'LIM MUASSASALARI SAMARADORLIGIGA MARKETING STRATEGIYASI OMILLARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (DEA–MALMQUIST–TOBIT MODELI ASOSIDA) 84
Egamov Sevinchbek
NEFT XOMASHYOSIDAN OLINUVCHI YO'L BITUMLARINING ASOSIY KOLLOID-KIMYOVIY VA EKSPLUATATSION XOSSALARIGA ULARNING UGLEVODOROD GURUH TARKIBINING TA'SIRINI TAHLILI 91
Abdullayeva Shoxista, Adizov Bobirjon
THE IMPACT OF LEADERSHIP SUPPORT ON ACADEMIC STAFF WORK EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 96
Sultonboyeva Munira, Sultanova Kamila

QURILISH MATERIALLARI BOZORIDA TALAB ELASTIKLIGINI MAHSULOT SEGMENTLARI KESIMIDA EKONOMETRIK BAHOLASH METODIKASI 103
Turdiyev Abdullo Sagdullayevich
IQLIM RISKLARI VA BANK KREDIT PORTFELI SIFATI: XITOY TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON UCHUN METODOLOGIK YONDASHUVLAR 110
Nasriyev Farxod
TIJORAT BANKLARIDA OPERATSION SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI (“HAMKORBANK” ATB MISOLIDA) 116
Haydarova Shohista Shuhrat qizi
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 126
Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI 131
Umirov Abdisalom To‘rayevich
O‘ZBEKISTONDA SOLIQ SOHASIDA IDORALARARO INTEGRATSIYA HOLATI VA UNI TAHLIL QILISH .. 138
Ashirov Jamolbek Shuxrat o‘g‘li
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING SUN’IY INTELLEKTGA TAYYORGARLIGI VA INTEGRATSIYA DARAJASINI BAHOLOVCHI KOMPOZIT INDEKS (AI-TII) METODIKASI 147
Madrahimova Onajon Javlon qizi
O‘ZBEKISTONDA TEMIR YO‘L SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING AHAMIYATI VA O‘RNI: TALAB, INVESTITSIYA VA INTEGRATSIYA KANALLARI TAHLILI 153
Nazarov Ulug‘bek Akbar o‘g‘li
DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI YAXSHILASH YO‘LLARI 159
Aitimbetob Koyshibek Orazbekovich
O‘ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINING HUDUDIY NOMU-TANOSIBLIGI VA 2040-YILGACHA BELGILANGAN MAQSADLI KO‘RSATKICHLARGA ERISHISH MASALALARI 166
Abdimaitov Saidumarxon Mansur o‘g‘li
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНАЛИТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В УПРАВЛЕНИИ ОПЕРАЦИОННЫМ РИСКОМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 171
Курбонов Илхом Жумакулович
TA’LIM XARAJATLARI SAMARADORLIGI: XALQARO QIYOSIY TAHLIL VA O‘ZBEKISTON UCHUN INSTITUTSIONAL SABOQLAR 177
Temirov Muhammad Maxmud o‘g‘li
KASE VA UCI INDEKSLARIDA RISK, O‘ZGARUVCHANLIK VA PROGNOZ BARQARORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH 182
Raximov Abduxalil Toshbotirovich
O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK TARMOQLARINING 2030-YILGACHA RIVOJLANISHINI ARIMA VA SARIMA MODELLARI ASOSIDA PROGNOZLASH 192
Xaitova Rushana O‘ktamovna
MINTAQADA AHOLINING TAKROR BARPO BO‘LISHI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN O‘ZARO ALOQASI 196
Saidov Jo‘rabek Nosirxonovich
DAVLAT XARIDLARIDA BUDJET TEJAMKORLIGINI BELGILOVCHI OMILLARNING PANEL EKONOMETRIK TAHLILI 201
Axmedjanov Sardorbek
SUN’IY INTELLEKTNING JAHON MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI: IQTISODIY O‘SISH, BANDLIK VA DAROMADLAR TENGSIZLIGI 206
Sohibov Azizbek, Karimova Komila
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH 211
Axmedov Xasan Ruzibayevich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

ТЕРМОДИНАМИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ И ПРОМЫШЛЕННАЯ ПРОВЕРКА ДЕСУЛЬФУРАЦИИ СТАЛИ 20ГЛ КАЛЬЦИЙ-АЛЮМИНАТНЫМ ФЛЮСОМ КРФ-90 В ИНДУКЦИОННОЙ ТИГЕЛЬНОЙ ПЕЧИ 216
Уразбаев Талгат, Турсунов Нодиржон, Абдуназаров Бахтиёр, Абдухаликов Ердаулет
VELSLASH KLINKER CHIQINDISIDAN QIMMATBAHO METALLARNI KOMPLEKS AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH 222
Qayumov Oybek, Uzoqov Shaxrizod, Qurbonov Bunyod
MONETAR SIYOSAT SHOKLARINING O‘ZBEKISTON EKSPORTI VA IMPORTIGA ASIMMETRIK TA’SIRI 227
Solijonova Muxlisaxon Azamatjon qizi
YANGI LOGISTIKA MARKAZI ORQALI YUK TASHISHNING TEXNIK-IQTISODIY ASOSLARI 232
Zohidov Muhriddin, Jumayev Sherzod
BANKLARDA SUN’IY INTELLEKTNI MAS’ULIYATLI BOSHQARISH: XALQARO MODELLAR VA O‘ZBEKISTONDA BARQAROR MOLIYAVIY RIVOJLANISH UCHUN MOSLASHTIRISH YO‘NALISHLARII . 240
Mirsoatov Alisher Qudratullayevich
KORXONALARDA EKOLOGIK XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 249
Muxammadjanov Muzaffar Muxammadsolixovich
MAROSIM VA URF-ODATLARDA GASTRONOMIK KONSEPTLARNING LINGVOMADANIY IFODALANISHI .. 254
Halimova Mahbuba To‘raqulovna
O‘ZBEKISTONDA PENSIYA QAMROVINI KENGAYTIRISH: NORASMIY BANDLIK VA O‘ZINI O‘ZI BAND QILGANLAR UCHUN IJTIMOIY SUG‘URTA MEXANIZMLARI 259
Oqiljonov Azizjon Olimjon o‘g‘li
DAVLAT BUDJETINING IQTISODIY KATEGORIYA SIFATIDAGI MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI ... 265
Sharipov Zafar Bazarovich
ИССЛЕДОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ СОСТАВА ГАЗОВОЙ ФАЗЫ ПРИ ДУГОВОЙ СВАРКЕ ПОД СЛОЕМ ФЛЮСА НИЗКОУГЛЕРОДИСТЫХ И НИЗКОЛЕГИРОВАННЫХ СТАЛЕЙ 271
Эрматов Зиёдулла, Рахматуллаева Нозима, Гальперин Леонид
CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR TIZIMI VA ULARNING TASNIFI 276
Abduganiyev Oybek Akmaljon o‘g‘li
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT TUSHUNCHASINING O‘ZIGA XOS TASNIFLANISHI 281
Raxmonov Aziz Iskandarovich
XIZMATLAR SOHASIDA SAMARADORLIKNI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR TIZIMI VA ULARNING TASNIFI 286
Axmedov Mexrojxon Ma’rufjon o‘g‘li
SUT TANNARXINING OMILLI TAHLILI VA XARAJATLARNI KAMAYTIRISH ZAXIRALARI (SAMARQAND VILOYATIDAGI FERMER XO‘JALIGI MISOLIDA) 290
Karimov Ikromjon, Alikulov Abdimo‘min
AGROKLASTERLARDA MATERIALLAR HARAKATI VA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI BO‘YICHA SEGMENTAR HISOBOT TUZISH TARTIBI 295
Aliqulov G‘olib Abdimo‘minovich
SUG‘URTA KOMPANIYASINING ANDERRAYTING NATIJALARI VOLATILLIGINI KAMAYTIRISHDA NOMUTANOSIB QAYTA SUG‘URTA DASTURINI OPTIMALLASHTIRISH (JAVOBGARLIK PORTFELI MISOLIDA) 303
Ubaydullaeva Nargiza Ravshanovna
SOLIQ TUSHUMLARINI PROGNOZLASHTIRISHDA ELASTIKLIK VA MOSLASHUVCHANLIK KO‘RSATKICHLARIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 308
Allakuliyev Akmal Baltayevich

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OLIY TA'LIMDA KADRLAR SALOHIYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI 313
Kamilxo'jayeva Malikaxon, Yuldashov Isomiddin
WAYS TO IMPROVE THE MARKETING EFFECTIVENESS OF "O'ZTEMIRYO'LYO'LOVCHI" JSC 319
Uktamov Sarvar Atxam o'g'li
TA'LIM XARAJATLARINI DASTURIY BUDJETLASHTIRISH ORQALI MOLIYALASHTIRISHNI OSHIRISHNING ILMIY-AMALIY YECHIMLARI: XORIJIY TAJRIBA VA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH 324
Quvatov Feruz Qaxramonovich
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ИНВЕСТОРЫ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ 328
Камилова Севара Анваровна
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONLARIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR 339
Raxmatov Ziyodullo Nosirovich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONLARIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR



Raxmatov Ziyodullo Nosirovich
Toshkent davlat transport universiteti
“Menejment, marketing va turizm” kafedrasi mudiri, i.f.f.d., dotsent
Email: znraxmatov@tstu
ORCID: 0000-0002-8819-1678

Annotatsiya: Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv jarayonlariga zamonaviy yondashuvlar va usullar tadqiq etilgan. Korporatsiya maqsadi to‘g‘risidagi munozaraning aksiyadorlar modelidan manfaatdor tomonlar, maqsad va ESG hamda raqamli va moslashuvchan boshqaruvga qadar evolyutsiyasi ko‘rsatilgan. Zamonaviy yondashuvlar to‘rt yo‘nalishga – uzoq muddatli qiymat yaratish, korporatsiya maqsadini manfaatdor tomonlar bilan uyg‘unlashtirish, kengash jarayonlari va xulq-atvori hamda raqamli boshqaruvga guruhlangan. Qiymatga yo‘naltirilgan boshqaruv, balanslashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi, korporativ risklarni boshqarish, “uch chiziq” modeli, compliance, kengash samaradorligini baholash, ESG integratsiyasi va raqamli korporativ boshqaruv usullarining mazmuni va natijalari tizimlashtirilgan. Ushbu usullarning O‘zbekiston amaliyotida joriy etilish holati baholanib, raqamli oshkoralik va MHXSga o‘tishda ilgarilash mavjudligi, biroq elektron yig‘ilishlar, kengash portallari, real vaqtli KPI tizimlari hali tizimli tus olmagani, taftish komissiyasi va ichki audit vakolatlari takrorlanishi aniqlangan. Natijada zamonaviy usullarni strategik, boshqaruv, nazorat va texnologik darajalarga ajratib, har bir darajani aniq korporativ organlar javobgarligiga biriktiruvchi integratsiyalashgan model va uni bosqich-ma-bosqich joriy etish tartibi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyati, manfaatdor tomonlar, ESG, korporativ risklarni boshqarish, “uch chiziq” modeli, kuzatuv kengashi, raqamli korporativ boshqaruv.

Аннотация: В статье исследованы современные подходы и методы корпоративного управления в акционерных обществах. Показана эволюция дискуссии о цели корпорации от модели акционеров к модели заинтересованных сторон, модели цели и ESG, а также к цифровому и гибкому управлению. Современные подходы сгруппированы по четырём направлениям: создание долгосрочной стоимости, согласование цели корпорации с интересами заинтересованных сторон, процессы и поведение совета директоров, цифровое управление. Систематизированы содержание и результаты применения управления, ориентированного на стоимость, сбалансированной системы показателей, управления корпоративными рисками, модели «трёх линий», комплаенса, оценки эффективности совета, интеграции ESG и цифрового корпоративного управления. Оценено состояние внедрения этих методов в практике Узбекистана: выявлено продвижение в цифровом раскрытии информации и переходе на МСФО, однако электронные собрания, порталы совета директоров и системы KPI в режиме реального времени пока не носят системного характера, а полномочия ревизионной комиссии и службы внутреннего аудита дублируются. Предложена интегрированная модель, распределяющая современные методы по стратегическому, управленческому, контрольному и технологическому уровням с закреплением ответственности за конкретными корпоративными органами, а также порядок её поэтапного внедрения.

Ключевые слова: корпоративное управление, акционерное общество, заинтересованные стороны, ESG, управление корпоративными рисками, модель «трёх линий», наблюдательный совет, цифровое корпоративное управление.

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiyotda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar – raqamli transformatsiya, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq risklar, investorlar tarkibining o‘zgarishi, geosiyosiy noaniqlik va jamiyatning korporatsiyalarga nisbatan kutilmalarining ortishi korporativ boshqaruv jarayonlariga yondashuvni sifat jihatidan yangilashni taqozo etmoqda. Agar XX asr oxirida korporativ boshqaruv asosan aksiyadorlar va menejerlar o‘rtasidagi agentlik muammosini hal etish vositasi sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda u kompaniyaning strategik barqarorligi, uzoq muddatli qiymat yaratish qobiliyati va jamiyat oldidagi mas’uliyatini ta’minlovchi kompleks mexanizmga aylanmoqda.

O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish, ularning aksiyalarini ommaviy joylashtirish va xalqaro kapital bozorlariga chiqish vazifalari [1] milliy aksiyadorlik jamiyatlaridan xalqaro investorlar talablariga

javob beradigan boshqaruv usullarini joriy etishni talab qilmoqda. Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishga oid hujjatlarda mustaqil kuzatuv kengashi a'zolarini jalb etish, samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlarini joriy qilish va ichki audit tizimini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [2].

Tadqiqotning maqsadi korporativ boshqaruv jarayonlariga zamonaviy yondashuvlar va usullarni tizimlashtirish, ularning O'zbekiston amaliyotida joriy etilish holatini baholash va integratsiyalashgan modelini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy yondashuvlarning mohiyati korporatsiya maqsadi to'g'risidagi munozara bilan bog'liq. M. Fridman biznesning yagona ijtimoiy mas'uliyati o'yin qoidalari doirasida foydani oshirishdan iborat ekanini ta'kidlagan [3]. Bu yondashuv uzoq yillar aksiyadorlar modelining nazariy asosi bo'lib keldi. 2019-yilda esa "Business Roundtable" tashkilotining 181 nafar bosh direktor imzolagan bayonotida kompaniyalar mijozlar, xodimlar, yetkazib beruvchilar va mahalliy hamjamiyatlar oldida ham majburiyatlarga ega ekani tan olindi [4]. M. Porter va M. Kramer "umumiy qiymat yaratish" konsepsiyasida ijtimoiy muammolarni hal etishni raqobat ustunligi manbai sifatida ko'rishni taklif etgan [5], K. Mayer esa biznes maqsadini odamlar va sayyora muammolariga foydali yechimlar ishlab chiqish deb ta'riflagan [6]. ISO 37000 standartida tashkilot maqsadi boshqaruvning markaziy tamoyili sifatida belgilangan [7].

Aksiyadorlik qiymati g'oyasi inkor etilmay, uzoq muddatli qiymat konsepsiyasi sifatida qayta talqin qilindi. A. Rappaport faoliyatni kelgusi pul oqimlarining diskontlangan qiymati asosida baholashni [8], G. B. Styuart iqtisodiy qo'shilgan qiymat (EVA) ko'rsatkichini [9] taklif etgan, T. Koller va hammualliflari qiymat faqat kapital rentabelligi kapital qiymatidan yuqori bo'lganda oshishini ko'rsatgan [10]. R. Kaplan va D. Norton moliyaviy ko'rsatkichlarni mijozlar, ichki jarayonlar va rivojlanish istiqbollari bilan to'ldiruvchi balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqqan [11; 12].

Barqarorlik yo'nalishida R. Eccles, I. Ioannou va G. Serafeim barqarorlik siyosatini erta joriy etgan kompaniyalar uzoq muddatda bozor qiymati va rentabellik bo'yicha yuqori natijalarga erishganini aniqlagan [13]. 2023-yilda ISSB tomonidan IFRS S1 va S2 standartlari qabul qilindi [14], Yevropa Ittifoqida korporativ barqarorlik hisoboti majburiy qilib belgilandi [15], G20/IHTT tamoyillariga "Barqarorlik va bardoshlilik" bo'limi kiritildi [16].

Risklar va nazorat sohasida COSO konsepsiyasi risklarni boshqarishni strategiya bilan integratsiyalashgan jarayon sifatida talqin qiladi [17], ichki auditorlar instituti (IIA) "uch chiziq" modelini taklif etgan [18], ISO 37301 standarti muvofiqlik boshqaruv tizimiga talablarni belgilagan [19]. Kengash samaradorligi bo'yicha R. Adams, B. Hermalin va M. Vaysbax kengashning nazorat va maslahat funksiyalarini birgalikda bajarishini [20], M. Huse kengash ichki jarayonlarining hal qiluvchi ahamiyatini [21], D. Nadler kengash faoliyatini muntazam baholash zarurligini [22] asoslagan. Buyuk Britaniyaning Korporativ boshqaruv kodeksi kengashni har yili baholashni nazarda tutadi [23], Boshqaruvchilik kodeksi esa institutsional investorlarni faol ishtirokchiga aylantiradi [24].

Raqamli boshqaruv yo'nalishida D. Yermak blokcheyn aksiyadorlar reyestri va ovoz berishning shaffofligini oshirishini [25], A. Lafarre va K. Van der Elst blokcheyn umumiy yig'ilish xarajatlarini kamaytirishini [26], M. Fenvik, J. Makkaheri va E. Vermyulen esa ierarxik boshqaruv o'rnini "platforma boshqaruvi" egallayotganini [27] ko'rsatgan. Mukofotlash siyosati bo'yicha M. Jensen va K. Merfi rahbarlar mukofotining kompaniya qiymatiga sezgirligi pastligini [28], L. Bebchuk va J. Frid mukofotlashning o'zi agentlik muammosiga aylanishi mumkinligini [29] aniqlagan. E. Sheyn esa tashkiliy madaniyatning rasmiy qoidalarni amalda ishlashi uchun hal qiluvchi ekanini asoslagan [30].

Milliy tadqiqotlarda S. E. Elmirzayev korporativ boshqaruvni moliyaviy strategiya, dividend siyosati va qiymatni boshqarish bilan bog'liq holda [31], B. Yu. Xodiyev va hammualliflari kuzatuv kengashi samaradorligini oshirish masalalarini [32] tahlil qilgan, I. V. Ivashkovskaya esa kengashning strategik mas'uliyatini qiymat o'sishi orqali baholashni taklif etgan [33].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, adabiyotlarni tizimli sharhlash, tarixiy-mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, tipologiyalash va strukturaviy-funksional modellashtirish usullaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar va xalqaro standartlar (G20/IHTT tamoyillari, ISO 37000, ISO 37301, COSO ERM, IIA, IFRS S1/S2) asosiy g'oyasi va yondashuv turi bo'yicha guruhlandi. Zamonaviy usullar mazmuni, vositalari va kutilayotgan natijalari bo'yicha qiyoslandi. Ularning O'zbekiston amaliyotida joriy etilish holati normativ-huquqiy hujjatlar va Korporativ axborotlar yagona portali ma'lumotlari asosida "joriy etilmoqda", "qisman" va "tizimli tus olmagan" darajalari bo'yicha sifat jihatidan baholandi. Integratsiyalashgan model usullarni boshqaruv darajalari va javobgar

korporativ organlar bo‘yicha taqsimlash orqali ishlab chiqildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili zamonaviy yondashuvlarning to‘rt yo‘nalishda rivojlanganini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Korporativ boshqaruv jarayonlariga zamonaviy yondashuvlarning asosiy yo‘nalishlari[1]

Yo‘nalish	Asosiy mualliflar va manbalar	Asosiy g‘oya
Uzoq muddatli qiymat yaratish	A. Rappaport, G. B. Styuart, T. Koller, R. Kaplan va D. Norton	Aksiyadorlik qiymati diskontlangan pul oqimlari, EVA va strategik ko‘rsatkichlar orqali uzoq muddatli istiqbolda boshqariladi
Korporatsiya maqsadi va manfaatdor tomonlar	M. Porter va M. Kramer, K. Mayer, Business Roundtable, ISO 37000	Iqtisodiy qiymat jamiyat uchun qiymat yaratish orqali barqaror shakllanadi; maqsad – boshqaruvning markazi
Kengash jarayonlari va xulq-atvori	M. Huse, R. Adams va boshq., D. Nadler	Kengash samaradorligi rasmiy tuzilmadan ko‘ra ichki jarayonlar, kompetensiyalar va muntazam baholashga bog‘liq
Raqamli va moslashuvchan boshqaruv	D. Yermak, A. Lafarre va K. Van der Elst, M. Fenvik va boshq.	Blokcheyn, elektron ovoz berish va platforma boshqaruvi axborot nosimmetrikligini kamaytiradi

Ushbu yo‘nalishlar bir-birini bekor qilmaydi, balki oldingi qarashlarni yangi elementlar bilan boyitadi: agentlik nazorati mexanizmlari hozir ham o‘z ahamiyatini saqlagan, biroq ular ESG talablari, risklarga yo‘naltirilgan boshqaruv va raqamli vositalar bilan to‘ldirilgan. Paradigmalar o‘zgarishining asosiy yo‘nalishi korporativ boshqaruv qamrovining kengayishida namoyon bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Korporativ boshqaruv paradigmalarining transformatsiyasi[2]

Zamonaviy yondashuvlar amaliyotda aniq usullar orqali amalga oshiriladi. Ularning mazmuni, vositalari va aksiyadorlik jamiyati uchun natijalari 2-jadvalda tizimlashtirilgan (2-jadval).

2-jadval. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning zamonaviy usullari[3]

Usul	Mazmuni	Asosiy vositalar	Kutilayotgan natija
Qiymatga yo‘naltirilgan boshqaruv	Qarorlarni jamiyat qiymatiga ta’siri orqali baholash	EVA, DCF, TSR, ROIC	Kapitaldan samarali foydalanish
Balanslashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi va KPI	Strategiyani o‘lchanadigan maqsadlarga aylantirish	Strategik xarita, KPI kartalari	Strategiya ijrosi ustidan nazorat

1 Manba: Muallif ishlanmasi.
2 Manba: Muallif ishlanmasi.
3 Manba: Muallif ishlanmasi.

Korporativ risklarni boshqarish	Risklarni strategiya va natijalar bilan integratsiyalash	COSO ERM, ISO 31000, risk-apetit	Kutilmagan yo‘qotishlarning kamayishi
“Uch chiziq” modeli	Nazorat va ishonch funksiyalarini taqsimlash	Ichki audit, risk-menejment, compliance	Nazorat takrorlanishi va bo‘shliqlarining bartaraf etilishi
Compliance tizimi	Qonun, ichki me’yor va etika talablariga rioya	ISO 37301, ISO 37001, axloq kodeksi	Huquqiy va obro‘ risklarining pasayishi
Kengash samaradorligini baholash	Kengash, qo‘mitalar va a’zolar faoliyatini muntazam baholash	Anketa, tashqi baholash, kompetensiyalar matritsasi	Qarorlar sifatining oshishi
ESG integratsiyasi	Ekologik va ijtimoiy omillarni strategiya va hisobotga kiritish	IFRS S1/S2, GRI, ESG reytinglari	Xalqaro kapitalga kirish
Raqamli korporativ boshqaruv	Boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish	E-yig‘ilish, kengash portali, blokcheyn, SI	Shaffoflik, tezkorlik

ESG yondashuvida “G” – boshqaruv komponenti qolgan ikki komponentni amalga oshirishning institutsional asosi hisoblanadi: ekologik va ijtimoiy maqsadlar kengash darajasida belgilanmasa, nazorat qilinmasa va hisobot berilmasa, ular deklarativ xarakterda qoladi. “Uch chiziq” modelida esa boshqaruv organi hisobdorlikni ta’minlaydi, menejment birinchi (risklarni bevosita boshqarish) va ikkinchi (risk-menejment, compliance) chiziq vazifalarini bajaradi, ichki audit uchinchi chiziq sifatida mustaqil ishonch beradi [18]. Mukofotlash siyosatini uzoq muddatli ko‘rsatkichlarga bog‘lash, mukofotni kechiktirib to‘lash va noto‘g‘ri hisobot asosida to‘langan mukofotni qaytarib olish (clawback) mexanizmlari agentlik muammosini yumshatadi (3-jadval) [28; 29].

3-jadval. Zamonaviy korporativ boshqaruv usullarining O‘zbekiston amaliyotida joriy etilish holati[4]

Usul	Me’yoriy asos	Holati	Izoh
Raqamli axborot oshkoraligi	Korporativ axborotlar yagona portali	Joriy etilmoqda	Hisobotlar rasmiy talablarga javob beradi
MHXS bo‘yicha hisobot	PQ-4611-son qaror	Joriy etilmoqda	O‘tish jarayoni davom etmoqda
Mustaqil kengash a’zolari, KPI	PF-6096-son Farmon; VM 207-son qarori	Qisman	Real vaqtli KPI tizimlari tizimli tus olmoqda
Kengash faoliyatini baholash	Korporativ boshqaruv kodeksi	Qisman	Tavsiya xarakterida, majburiy emas

Baholash natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy amaliyotda korporativ oshkoralik va moliyaviy hisobot tizimlarini rivojlantirish borasida muayyan natijalarga erishilgan. Nazorat va texnologik usullarni izchil rivojlantirish hamda o‘zaro integratsiyalash ularning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash va javobgarlikni aniq taqsimlash korporativ boshqaruv tizimining yaxlitligini mustahkamlash imkonini beradi.

Olingan natijalar zamonaviy yondashuvlar korporativ boshqaruvni nazorat vositasidan qiymat yaratish va strategik barqarorlikni ta’minlash tizimiga aylantirishga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi. Bu xalqaro kapital bozorlariga chiqishni rejalashtirayotgan milliy aksiyadorlik jamiyatlari uchun alohida ahamiyatga ega, chunki xalqaro investorlar moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda boshqaruv sifati va ESG ko‘rsatkichlarini ham hisobga olmoqda [13; 16].

Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. IHTTning 2024-yilda yangilangan davlat korxonalariga oid tamoyillarida davlatning mulkdorlik funksiyasini regulyatorlik funksiyasidan ajratish, kengashlarga malakali va mustaqil a’zolarni shaffof tartibda tayinlash hamda barqarorlik masalalarini boshqaruvga integratsiyalashga alohida e’tibor qaratilgan [38]. Milliy amaliyotda taftish komissiyasi va ichki audit xizmati faoliyatini “uch chiziq” modeli asosida muvofiqlashtirish nazorat funksiyalarining samarali taqsimlanishiga yordam beradi. Ichki auditning kuzatuv kengashi (audit qo‘mitasi) oldida bevosita hisobdorligini ta’minlash esa uning mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Rasmiy tuzilmalar bilan bir qatorda korporativ madaniyat ham hal qiluvchi omil hisoblanadi. E. Sheyn ko‘rsatganidek, kodekslar va ichki nizomlar xodimlar va rahbarlarning haqiqiy qadriyatlariga aylanmasa,

4 Manba: Muallif ishlanmasi.

kutilgan natija bermaydi [30]. Shu bois kengash zimmasiga “yuqoridan beriladigan ohang” orqali axloqiy madaniyatni shakllantirish va xabar beruvchilarni himoya qilish tizimini joriy etish vazifalari yuklanishi lozim. Tarmoq xususiyatlari ham hisobga olinishi kerak: masalan, transport sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlarida ESG ko‘rsatkichlari orasida energiya sig‘imi, chiqindilar, harakat xavfsizligi va xizmat sifatiga yuqoriroq vazn berilishi maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korporativ boshqaruv paradigmasi aksiyadorlar modelidan manfaatdor tomonlar, maqsad va ESG hamda raqamli va moslashuvchan boshqaruvga qadar evolyutsiyani bosib o‘tgan; har bir yangi bosqich oldingisini bekor qilmay, uning qamrovini kengaytirgan.

Zamonaviy yondashuvlar to‘rt yo‘nalishda – uzoq muddatli qiymat, korporatsiya maqsadi va manfaatdor tomonlar, kengash jarayonlari hamda raqamli boshqaruv yo‘nalishlarida rivojlanmoqda va sakkizta asosiy usul orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston amaliyotida raqamli oshkoralik va MHXSga o‘tishda ilgarilash mavjud, biroq KPI tizimlari, kengashni baholash va “uch chiziq” modeli qisman, elektron yig‘ilishlar va kengash portallari esa tizimsiz qo‘llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // URL: https://lex.uz/ru/docs/-5841063

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktyabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6096-son Farmoni // URL: https://lex.uz/docs/5068824

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori // URL: https://lex.uz/docs/-4746047

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 207-son qarori // URL: https://lex.uz/docs/2712352

5. Korporativ boshqaruv kodeksi. Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish komissiyasining 2015-yil 31-dekabrdagi 9-son majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan. – www.lex.uz

6. Mayer C. Prosperity: Better Business Makes the Greater Good. – Oxford: Oxford University Press, 2018.

7. ISO 37000:2021. Governance of organizations – Guidance. – Geneva: ISO, 2021.

8. Rappaport A. Creating Shareholder Value: The New Standard for Business Performance. – New York: Free Press, 1986.

9. Stewart G.B. The Quest for Value: A Guide for Senior Managers. – New York: HarperBusiness, 1991.

10. Koller T., Goedhart M., Wessels D. Valuation: Measuring and Managing the Value of Companies. 7th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2020.

11. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard – Measures That Drive Performance // Harvard Business Review. – 1992. – Vol. 70, No. 1. – P. 71–79.

12. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996.

13. Eccles R.G., Ioannou I., Serafeim G. The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance // Management Science. – 2014. – Vol. 60, No. 11. – P. 2835–2857.

14. IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information; IFRS S2 Climate-related Disclosures. – London: IFRS Foundation (ISSB), 2023.

15. Directive (EU) 2022/2464 of the European Parliament and of the Council of 14 December 2022 (Corporate Sustainability Reporting Directive) // Official Journal of the European Union. – 2022. – L 322.

16. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023.

17. COSO. Enterprise Risk Management – Integrating with Strategy and Performance. – Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission, 2017.

18. The Institute of Internal Auditors. The IIA’s Three Lines Model: An Update of the Three Lines of Defense. – Lake Mary: IIA, 2020.

19. ISO 37301:2021. Compliance management systems – Requirements with guidance for use. – Geneva: ISO, 2021.

20. Adams R.B., Hermalin B.E., Weisbach M.S. The Role of Boards of Directors in Corporate Governance: A Conceptual Framework and Survey // Journal of Economic Literature. – 2010. – Vol. 48, No. 1. – P. 58–107.

21. Huse M. Boards, Governance and Value Creation: The Human Side of Corporate Governance. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007.

22. Nadler D.A. Building Better Boards // Harvard Business Review. – 2004. – Vol. 82, No. 5. – P. 102–111.
23. UK Corporate Governance Code. – London: Financial Reporting Council, 2024.
24. The UK Stewardship Code 2020. – London: Financial Reporting Council, 2019.
25. Yermack D. Corporate Governance and Blockchains // Review of Finance. – 2017. – Vol. 21, No. 1. – P. 7–31.
26. Lafarre A., Van der Elst C. Blockchain Technology for Corporate Governance and Shareholder Activism // ECGI Law Working Paper. – 2018. – No. 390.
27. Fenwick M., McCahery J.A., Vermeulen E.P.M. The End of 'Corporate' Governance: Hello 'Platform' Governance // European Business Organization Law Review. – 2019. – Vol. 20. – P. 171–199.
28. Jensen M.C., Murphy K.J. Performance Pay and Top-Management Incentives // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No. 2. – P. 225–264.
29. Bebchuk L., Fried J. Pay Without Performance: The Unfulfilled Promise of Executive Compensation. – Cambridge: Harvard University Press, 2004.
30. Schein E.H., Schein P. Organizational Culture and Leadership. 5th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2017.
31. Elmirzayev S.E. Korporativ boshqaruv: darslik. – T.: Zebo Print, 2022. – 476 b.
32. Xodiyev B.Yu., Qosimova D.S. va boshq. Korporativ boshqaruv: darslik. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2012.
33. Ивашковская И.В. Моделирование стоимости компании. Стратегическая ответственность советов директоров. – М.: ИНФРА-М, 2009.
34. Korporativ axborotlar yagona portali. – www.openinfo.uz
35. Friedman M. The Social Responsibility of Business Is to Increase Its Profits // The New York Times Magazine. – 1970. – September 13.
36. Business Roundtable. Statement on the Purpose of a Corporation. – Washington, 2019. – www.businessroundtable.org
37. Porter M.E., Kramer M.R. Creating Shared Value // Harvard Business Review. – 2011. – Vol. 89, No. 1/2. – P. 62–77.
38. OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises 2024. – Paris: OECD Publishing, 2024.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100